

TALIS - STUDY OF TEACHING AND EDUCATIONAL CONDITIONS!

Shahnoza Atajanova

Primary education teacher, 17th comprehensive school, Gurlan district, Khorezm region

Gulchehra Xudayberganova

Primary school teacher Khorezm region, Yangiariq district 40th comprehensive school

Saidova Sadoqat Shonazarovna

Yangiariq district of Khorezm region

Primary Education Teacher of No. 4 General Secondary School

Email sadoqat9323@umail.uz

Annotation. In this article, the purpose of TALIS International Studies and in these studies. The participation of Uzbekistan is covered.

Keywords: Teacher, principal, activity, problem and solution

TALIS - O`QITISH VA TA`LIM OLIISH SHAROITLARINI O`RGANISH TADQIQOTI!

Shahnoza Atajanova

Xorazm viloyati, Gurlan tumani 17- umumiy o`rta ta`lim maktabi Boshlang`ch ta`lim fani o`qituvchisi

Gulchehra Xudayberganova

Boshlang`ich ta`limi fani o`qituvchisi Xorazm viloyati, Yangiariq tumani 40- umumiy o`rta ta`lim maktabi

Saidova Sadoqat Shonazarovna Xorazm Viloyati Yangiariq tumani

4-son umumiy o`rta ta`lim maktabining Boshlang`ich ta`lim o`qituvchisi

Email sadoqat9323@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada TALIS Xalqaro tadqiqotlarining maqsadi va bu tadqiqotlarda. O`zbekistonning Ishioka yoritilgan.

Kalit so`zlar: o`qituvchi, direktor, ish faoliyat, muammo va yechim.

Ta`limga bo`lgan e`tibor bu eng avvalo, kelajakka bo`lgan e`tibordir. Buning uchun ta`lim sifatini yanada oshirish, o`quvchilarning barkamol avlod bo`lib tarbiya topishiga e`tibor bergan holda, mana shu jarayonni amalga oshirishda eng birlamchi o`rinda turuvchi o`qituvchi shaxsi va o`qituvchilik kasbi maqomini oshirish vazifasi ham ko`ndalang turibdi. Bu borada qilinayotgan ishlar ham o`zining sezilarli va ijobiy ta`sirini o`tkazmasdan qolmydi. Eng avvalo pedagog kadrlarning attestatsiya jarayoniga jalb qilish jarayonining takomillashuvi, malaka oshirish kurslarining platformalarda o`qituvchiga qulay usulda tashkil qilinganini e`tirof etmaslikning iloji yo`q. Mana shu kabi ijobiy yangiliklar qatoriga O`zbekistonning TALIS xalqaro tadqiqotlariga qo`shilganini ham keltirib o`tish mumkin. The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`qitish va ta`lim olish muhitini hamda o`qituvchilarning ish sharoitlarini o`rganish tadqiqoti hisoblanadi. Bundan tashqari, o`qituvchilar va maktab rahbarlarining kasbiy va pedagogik rivojlanishi, shuningdek, ta`limdagi muhit va sharoitlar haqida tegishli tahlillarga imkon beruvchi mustahkam ko`rsatkichlar bo`yicha ishonchli va taqqoslanadigan ma`lumotlarni ishlab chiquvchi tadqiqotdir. TALIS Xalqaro baholash tadqiqotlarida 2024-yil O`zbekistonning ilk ishtiroki ta`minlanadi. Quvonarlisi shundaki, bu tadqiqot rahbar xodimlar va o`qituvchilar ish faoliyatini baholashga qaratilgan. Bundan ko`rinib turibdiki, PISA, PIRLS, TIMES xalqaro taqqidiotlari o`quvchilarning bilim darajasini bahoslasi, TALIS-o`qituvchilar faoliyati, ish sharoiti, maktablardagi ta`lim muhitini baholashga

qaratilgan. Demak, direktor va o'qituvchilar nafaqat milliy, balki xalqaro darajada o'z fikrini bildirish, o'zini namoyon qilish, yangilik va tajribalar almashish uchun katta imkoniyat bo'ladi. TALIS tadqiqotida 2008-yil 24 ta mamlakat, 2013-yil 37 mamlakat, 2018-yil 46 mamlakat ishtirok etgan bo'lsa, 2024-yil 50 ta mamlakat ishtirok etishi kutilmoqda. Ushbu tadqiqotda 200 ta maktab, 4000 nafar o'qituvchi va 200 nafar maktab direktori ishtirok etadi. Bu tadqiqotda ham tanlash xuddiki, PISA tadqiqotlariga o'xshash bo'lib, qaysi bosqich o'qituvchilarini tanlash yoki nechta tilde so'rovnomalar bo'lishi tuzilgan shartnomaga asosan ko'zda tutiladi. TALIS butun dunyo bo'ylab ta'limga ta'sir qiluvchi hamda davom etayotgan muammolar va yangi o'zgarishlarni hisobga oladi. Masalan, hozirgi kunda Covid-19 pandemiya davrida ham o'qituvchilik kasbidagi uzilshlarga o'z-o'zidan javob topish, tashabbuskorlik va o'z ustida ishlash kabi qobiliyatlarning borligi va uni namoyon qilish, ijodkorlik va kreativlik asosida ishga yondashish juda muhim hisoblanadi. O'qituvchilar, maktab rahbarlari va o'qitishning ishonchli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar yoki izchilliklar bo'yicha haqiqiy xalqaro taqqoslashlar va istiqbollarni ta'minlashdan iboratdir. Ushbu ko'rsatkichlarning tahlillarini talqin qilish ta'lim siyosati va amaliyoti bilan bog'liq manfaatdor tomonlarning uch guruhiga yo'naltirilgan.

1. Ularga o'qituvchilik kasbini rivojlantirishga ko'maklashuvchi siyosatni ko'rib chiqish va ishlab chiqishga yordam berish hamda samarali o'qitish va o'rganish uchun yaxshi sharoit yaratish
2. O'qituvchilar, maktab rahbarlari va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun ta'lim amaliyotini muhokamaga targ'ib qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish
3. Tadqiqotchilar, har bir content sohasi bo'yicha o'tgan tadqiqot adabiyotlarini yaratish (konseptual doirada aniqlangan) hamda TALIS va boshqa ma'lumotlar yordamida keying tadqiqotlar uchun asoslovchi ma'lumotlarni yaratish.

TALIS tadqiqoti direktor va o'qituvchi xodimlar o'rtasida turli xil so'rovnomalar o'tkazib, ularni xalqaro darajada baholaydilar. TALIS o'tkazgan shunday qiziq so'rovnomalardan biri bilan tanishib qoldim. O'qituvchining kasbidan mamnunligi haqida so'rovnoma berilgan bo'lib, bu so'rovnoma TALIS tadqiqotlarida ishtirok etgan davlatlar kesimida foizlar bilan chiqarib izohlangan.

*O'qituvchi bo'lishga qaror qilganimdan afsusdaman.

*Ehtimol, boshqa kasbni tanlasam, yaxshiroq bo'lar edi.

*Menimcha, o'qituvchining kasbi jamiyatda qadrlanadi.

*Agar men yana qaror qabul qila olsam, o'qituvchilikni tanlagan bo'lar edim.

*O'qituvchilik kasbining afzalliklari uning kamchiliklaridan ustun turadi.

Yuqoridagi kabi so'rovnomalardan ham anglash qiyin emaski, uning maqsadi– ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma'lumotlar taqdim etishdan iborat.

TALIS tadqiqotlarini o'tkazishdan yana bir asosiy maqsad ta'lim muassasalaridagi ahvolni bilish, o'qituvchilar kompetensiyalarini va muammolarini aniqlashdan iborat.

O'ylaymanki, ushbu tadqiqotda O'zbekistonning qatnashishi o'qituvchi maqomini yuksaltirish va o'qituvchilik kasbining qadrlanishiga yana bitta muhim va ulkan qadam bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Milliy markaz tomonidan o'tkazilgan "TALIS-o'qitish va ta'lim olish sharoitlarini o'rganish tadqiqoti to'g'risida" mavzusidagi online vebinar
2. "Ilm sarchashmalari" jurnal Urganch-2020
3. "Boshlang'ich ta'lim jurnali" Toshkent-2021

